

ILK O'RTA ASRLARDA XORAZMNING IQTISODIY TARAQQIYOTI VA SHARQ DAVLATLARI BILAN SAVDO ALOQALARI

Ismailov Ulug'bek Saparboy o'g'li

Urganch innovatsion universiteti

"Tarix" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilk o'rta asrlarda Xorazm vohasining iqtisodiy rivoji, hunarmandchilik mahsulotlarining ishlab chiqarilishi va mintaqalararo savdo aloqalaridagi o'rni arxeologik va yozma manbalar asosida tahlil qilinadi hamda vohaning Markaziy Osiyo va unga tutash hududlar bilan iqtisodiy-madaniy munosabatlaridagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, ilk o'rta asrlar, sug'orma dehqonchilik, Buyuk Ipak yo'li, xalqaro savdo, hunarmandchilik, badiiy metall buyumlar, kumush idishlar, arxeologik topilmalar, savdo aloqalari.

Аннотация: В данной статье анализируется экономическое развитие Хорезмской долины в раннее средневековье, производство ремесленных изделий и её роль в межрегиональной торговле на основе археологических и письменных источников. Также освещается значение долины в экономических и культурных связях с Центральной Азией и прилегающими территориями.

Ключевые слова: Хорезмская долина, раннее средневековье, орошённое земледелие, Великий Шёлковый путь, международная торговля, ремесленничество, художественные металлические изделия, серебряная посуда, археологические находки, торговые связи.

Abstract: This article analyzes the economic development of the Khwarezm region in the early Middle Ages, the production of handicrafts, and its role in interregional trade based on archaeological and written sources. The study also highlights the significance of the region in economic and cultural relations with Central Asia and adjacent territories.

Keywords: Khwarezm region, early Middle Ages, irrigated agriculture, Silk Road, international trade, handicrafts, artistic metalwork, silver vessels, archaeological findings, trade relations.

KIRISH: Ilk o'rta asrlar davri Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Qulay geografik joylashuvi, sug'orma dehqonchilikka asoslangan barqaror xo'jalik tizimi hamda Buyuk Ipak yo'lining shimoliy-g'arbiy tarmoqlari orqali o'tgan savdo yo'llari Xorazmni mintaqalararo iqtisodiy aloqalarning faol markaziga aylantirdi. Aynan shu omillar vohada hunarmandchilik tarmoqlarining, xususan, metallga ishlov berish, qurol-aslaha

va badiiy buyumlar ishlab chiqarishning yuksalishiga zamin yaratdi.

VI–X asrlarda Xorazm nafaqat ichki ehtiyojlarni qondiruvchi, balki tashqi bozorlarga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi hudud sifatida shakllandi. Arxeologik topilmalar, yozma manbalar va numizmatik materiallar Xorazm ustalarining kumush idishlar, murakkab kamonlar, gazlama va boshqa hunarmandchilik buyumlarini Ural, Kama bo‘yi, Volga hududlari hamda Sharq mamlakatlariga eksport qilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, xorazmlik savdogarlarning uzoq masofali savdo safarlarida faol ishtiroki mintaqaning iqtisodiy hayoti xalqaro savdo tizimiga chuqur integratsiyalashganini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI: Mazkur tadqiqotda Xorazmning ilk o‘rta asrlardagi iqtisodiy hayoti va savdo aloqalarini o‘rganishda turli manbalar asosiy rol o‘ynadi. A.Otaxo‘jaevning tadqiqoti vohaning Afrigiylar davridagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini yoritib, Xorazm shaharlarining o‘sha davrdagi ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarini tushunishga imkon beradi [1]. Istaxriyning “Yo‘llar va o‘lkalar” asari geografik va tijorat jihatidan Xorazm hududini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib, shaharlardagi savdo markazlari va karvon yo‘llari haqida ma’lumot beradi [2]. E.Chavannes Xorazmliklarning Sharq bilan savdo aloqalaridagi faol ishtiroki va ularning uzoq masofali savdo safarlaridagi odatlari haqida tarixiy kontekstni ta’minlaydi [3].

S.P.Tolstovning tangalar va Xorazm alifbosi bo‘yicha ishlari mahalliy hunarmandchilik va monetar tizimni tahlil qilishda muhim dalil manbai bo‘lib xizmat qiladi [4]. R.D.Goldina Sharq badiiy metall buyumlari va ularning Xorazmda ishlab chiqarilishi hamda eksportdagi o‘rni haqida keng statistik va arxeologik ma’lumot beradi [5]. V.P.Darkevich Sharq badiiy metall buyumlarining texnologiyasi va hunarmandlik uslublarini tahlil etadi, bu Xorazm ustalarining mahoratini va mintaqaviy ta’sirini tushunishga yordam beradi [6]. B. Turganov Xorazm shaharlarida hunarmandchilik faoliyati va uning tashqi savdo bilan bog‘liqligi bo‘yicha muhim ilmiy tadqiqotlarni taqdim etadi [7].

E.E.Nerazik arxeologik qazishmalar natijasida topilgan bronza o‘smadonlar va boshqa hunarmandchilik buyumlari asosida davrning madaniy va iqtisodiy xarakterini yoritadi [8]. Shuningdek, S.P.Tolstov Xorazmning ilk o‘rta asrlardagi siyosiy va madaniy rivojlanishi, shuningdek, hunarmandchilik mahsulotlarining xalqaro bozorlarda qadr-qimmati haqida muhim kontekst beradi [9]. Sh.Ismoilov esa Vikinglar xazinasidagi Xorazmshoh tangalari orqali vohaning uzoq masofali savdo aloqalaridagi o‘rnini ko‘rsatadi [10].

Shu tarzda, tahlil qilingan manbalar Xorazmning iqtisodiy hayoti, hunarmandchilik va xalqaro savdodagi o‘rnini tarixiy, arxeologik va madaniy jihatlar bilan to‘liq ochib beradi. Har bir manba Xorazm vohasining ichki ishlab chiqarish salohiyati va mintaqalararo iqtisodiy-madaniy integratsiyasini chuqurroq tushunishga

xizmat qiladi.

METOD: Mazkur tadqiqot tarix faniga xos bo'lgan ilmiy metodlarga tayangan holda olib borildi. Izlanish jarayonida tarixiylik va tizimli yondashuv tamoyillari asos qilib olinib, manbalarda keltirilgan ma'lumotlar chuqur qiyosiy tahlil qilindi. Bunda turli yozma manbalar va arxeologik ma'lumotlar o'rtasidagi o'xshash hamda farqli jihatlar aniqlanib, voqealar ularning tarixiy sharoiti va umumiy konteksti doirasida baholandi. Shuningdek, VI–X asrlarga oid badiiy metall buyumlar, kumush idishlar, tangalar va hunarmandchilik mahsulotlarining hududiy tarqalishi statistik va tarixiy-geografik usullar orqali o'rganildi.

MUHOKAMA: Ilk o'rta asrlar davrida Xorazm vohasi iqtisodiy hayotida sug'orma dehqonchilik yetakchi tarmoq sifatida shakllandi va unga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu sohaning barqaror rivoji uchun o'sha davr sharoitida ancha murakkab hisoblangan sun'iy sug'orish tizimlari barpo etildi. Hosildorlikning ortishi yer egalari farovonligining oshishiga olib kelib, natijada ichki bozorlar kengaydi hamda tashqi savdo aloqalari faollashdi. Xorazm hududi orqali o'tgan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy-g'arbiy tarmoqlari bo'ylab hunarmandchilik buyumlari, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining savdosi jadal amalga oshirildi. Shu tariqa, mintaqa doirasida ham, undan tashqarida ham iqtisodiy va savdo aloqalari muhim ahamiyat kasb etgan rivojlangan tizim sifatida shakllandi [1, 57-65].

Istaxriyning bergan ma'lumotlariga ko'ra Jayhunning shimoliy tomonida, janubida Jurjoniya (Gurganj) deb ataladigan katta shahri bor. Xorazmda bosh kentdan keyingi katta shahar. U g'uzlar bilan tijorat qiladigan joydir. Undan karvonlar Jurjon, Xazar va Xurosonga jo'naydi [2, 140].

Xorazmliklarning uzoq savdo safarlariga bo'lgan alohida intilishi yanada qadimgi manbalarda ham ta'kidlanadi. Tan sulolasi tarixida arablar istilosi davridagi xorazmliklarga quyidagicha tavsif beriladi: “Barcha g'arbiy varvarlar orasida bu – ho'kizlarni aravaga qo'shadigan yagona xalqdir; savdogarlari ana shu aravalarda uzoq mamlakatlarga boradilar” [3. 145].

Xorazmning V-VIII asrlardagi halqaro savdodagi ishtiroki natijasida charm, badiiy metall buyumlar, kamon kabi hunarmandchilik mahsulotlari vohada ishlab chiqarilgan va tashqi savdoga eksportga chiqarilgan. Ayniqsa, Xorazmda VI-VIII asrlarda tayyorlangan 12 ta kumush idishning Kama va Ural bo'yi mintaqasidan topilishi vohada badiiy metall buyumlar ishlab chiqarish sohasi taraqqiyotidan dalolat beradi [4, 120-145].

Hududda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Sharq badiiy metall buyumlari jami 115 ta yodgorlik nuqtasida aniqlangan. Ularning 39 tasidan O'rta Osiyo hududida ishlab chiqarilgan idishlar topilgan bo'lib, shu jumladan 9 ta nuqtadan Xorazmga mansub kumush buyumlar qayd etilgan va ularning umumiy soni 12 tani tashkil etadi. Mintaqada uchraydigan Sharq badiiy metall buyumlarining tarkibiy

nisbatiga e'tibor qaratilganda, ularning qariyb 15 foizi Vizantiya, 16 foizi Sosoniylar davlati mahsulotlari bo'lsa, asosiy ulush — taxminan 70 foizi Markaziy Osiyo ustalariga tegishli ekanligi kuzatiladi. Shu ko'rsatkichlar doirasida Xorazmda ishlab chiqarilgan buyumlarning eksportdagi hissasi 7 foizga yaqin bo'lib, bu vohaning mintaqalararo savdodagi muhim o'rnini yaqqol namoyon etadi [5, 17-18].

Mazkur kumush idishlari VI-VIII asr boshiga oid hisoblanadi [6, 107-108].

Arxeologik topilmalar Xorazmda VI–VIII asrlarda metallga ishlov berish ancha taraqqiy etganini va ushbu soha faqat mahalliy ehtiyojni emas, balki bozor talabini ham qondirishga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Xususan, Xorazm ustalari tomonidan tayyorlangan kumush idishlar Ural va Kama mintaqalariga eksport qilingan bo'lsa, ayni paytda Sharq hududlaridan yangi shakl va texnologiyaga ega metall buyumlarning kirib kelishi ham kuzatiladi. Bu holat Xorazm hunarmandchiligining tashqi savdo aloqalariga faol integratsiyalashganini hamda mintaqalararo iqtisodiy-madaniy almashinuv jarayonlarida muhim o'rin tutganini tasdiqlaydi [7, 47-56].

Eron bilan savdo-iqtisodiy aloqalar natijasida VIII asr birinchi yarmidan Xorazmda Sharq xotin-qizlari pardozi-andoz idishi o'smadonlar keng tarqala boshlagan. Bronza o'smadonlar VIII asr Yakka-Parson, XII-XIII asrlar boshidagi Jigarband, XIII-XIV asrlar Shaxrlik yodgorliklarida qayd etilgan [8, 30].

Ibn Fadlan ma'lumotlariga ko'ra, X asrda Bulg'or shahrida xorazmliklarning salmoqli koloniyasi mavjud bo'lgan. Xuddi shu asrda Xazariya poytaxti Itilda joylashgan yirik musulmonlar koloniyasi ham deyarli to'liq xorazmliklardan iborat edi. Ma'lumki, Xazariya xoqonining o'n ming kishilik gvardiya qo'shini – "al-Arsiya" deb atalgan harbiy tuzilma ham aynan musulmon xorazmliklardan tashkil topgan [9, 14].

Xorazmdan VI-VIII asrlarda kumush idishlar, turli tuman gazlama va boshqa hunarmandmandchilik mahsulotlari eksportga chiqarilgan. Rossiyaning Bartim, Shestakovo, Ust-Silva va Besshtanovo hududlaridan qayd qilingan xazinalar, Janubiy Udmurtiyaning Blagodatskoe 1 qal'asidagi Lomovatovka daryosi bo'ylaridan, Kuzebaev II qal'asi va Kanikadagi Nevolinsk, Verx-Saynskiy, Chipse daryosi havzasidagi Varna, Nevolinsk qabristonlaridan arxeologik topilmalar bilan birga Xorazm hukmdorlari Bravik (VII asr ik-kinchi yarmi), Safshafan (VIII asr birinchi yarmi). Abdulloh Ibn Tohir (VIII asr o'rtalari) tomonidan zarb qildirilgan tangalar qayd qilingan [5, 17-18].

Ilk o'rta asrda Xorazmda tayyorlangan murakkab kamonlar mashhur bo'lgan va eksportga chiqariluvchi asosiy tovarlardan biri bo'lgan. Mualliflar Movses Xorenatsii (VIII asr), al-Maqdisiy (X asr) ma'lumotlarini tahlil qilgan S.P.Tolstov Xorazm kamonlarning tashqi savdoda yuqori baholanishi haqida to'xtab o'tadi [9, 244].

Keyingi davrda Xorazmning tashqi savdo aloqalari juda keng hudud bo'ylab yoyili borgan. Hatto Xorazm va O'rta Osiyodan ancha shimolda yashovchi xalqlar bilan qizg'in savdo aloqalari olib borilgan. Bunga yorqin misol sifatida X asrga oid

Abu Rayhon Beruniyning ustozlari Abu Nasr Ibn Ibroqning amakisi Ahmad ibn Muhammad tangalari vikinglar xazinasidan aniqlanganini keltirish mumkin [10, 74-81].

NATIJALAR: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, VI–VIII asrlarda Xorazm vohasi iqtisodiy hayotida sug'orma dehqonchilik yetakchi tarmoqqa aylangan va barqaror sug'orish tizimlari orqali hosildorlik sezilarli darajada oshgan. Bu yer egalari farovonligini ta'minlab, ichki bozorlarni kengaytirgan va tashqi savdo aloqalarini rivojlantirishga zamin yaratgan. Hudud orqali o'tgan Buyuk Ipak yo'li orqali hunarmandchilik mahsulotlari, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari faol almashilib, Xorazmning mintaqalararo savdodagi o'rni mustahkamlangan.

Arxeologik tadqiqotlar Xorazmda metall buyumlarni ishlab chiqarish darajasi yuqori bo'lganini, shu jumladan kumush idishlar va badiiy metall buyumlar mahalliy bozor talabini qondirish bilan birga Ural, Kama va Sharq hududlariga eksport qilinganini tasdiqlaydi. Xorazm ustalarining badiiy metall va hunarmandlik mahsulotlari tarkibiy jihatdan Markaziy Osiyoga xos bo'lib, ularning 70 foizi hududiy ishlab chiqarishga tegishli ekanligi aniqlangan. Eksportdagi ulushi esa taxminan 7 foizni tashkil qilgan, bu esa Xorazmning mintaqaviy va xalqaro savdodagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Shuningdek, VIII asr birinchi yarmidan Xorazmda Sharq uslubidagi bronza va kumush o'smadonlar tarqalganligi, murakkab hunarmandchilik buyumlari, jumladan kamonlarning yuqori sifatda ishlab chiqarilgani va tashqi savdoda yuqori baholanganligi aniqlangan. Ibn Fadlan va boshqa manbalardan ma'lum bo'lishicha, Xorazmliklar o'z koloniyalari orqali turli mamlakatlarda savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirib, mintaqalararo integratsiyada faol ishtirok etgan.

Natijalar Xorazm hunarmandchiligi va savdo aloqalarining o'zaro chambarchas bog'liqligini, mintaqaviy va xalqaro iqtisodiy-madaniy almashinuvda muhim rol o'ynaganini isbotlaydi.

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, VI–VIII asrlarda Xorazm vohasi iqtisodiy hayotida sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik asosiy rol o'ynagan. Sug'orma tizimlarining rivojlanishi hosildorlikni oshirib, ichki bozorlarning kengayishiga va tashqi savdo aloqalarining faollashishiga zamin yaratgan. Xorazm hududi orqali o'tgan Buyuk Ipak yo'li hunarmandchilik va chorvachilik mahsulotlarining faol almashinuvi orqali mintaqaviy va xalqaro savdoda ahamiyatli o'rin egallashini ta'minlagan.

Arxeologik topilmalar, jumladan kumush idishlar, badiiy metall buyumlar va murakkab hunarmandchilik mahsulotlari Xorazm ustalarining yuqori mahoratini va ularning ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlarda keng qabul qilinganini ko'rsatadi. Xorazm hunarmandchiligining tashqi savdoga integratsiyasi hamda madaniy almashinuvdagi faol ishtiroki mintaqaning iqtisodiy va madaniy

salohiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan.

Shu tariqa, Xorazm hunarmandchiligi va savdo aloqalari nafaqat mahalliy iqtisodiy hayotning, balki mintaqaviy va xalqaro madaniy-iqtisodiy jarayonlarning ham ajralmas qismi bo'lgan. Bu tadqiqot hududning iqtisodiy va madaniy rivojlanishini, shuningdek, Xorazm ustalarining hunar merosini chuqurroq anglash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Отахўжаев А. Афригийлар даври (305-995 йиллар)да Хоразм шаҳарларининг сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти// Хоразм шаҳарлари тарихи манбалар ва замонавий тадқиқотларда. – Т.: “Фан”, 2024.
2. Истахрий. Йўллар ва ўлкалар китоби. Масъул муҳаррир: Д. Юсупова. – Т.: “Фан”, 2019.
3. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue. (turks) occidentaux. – СПб, 1903.
4. Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийский алфавит. ВДИ. 1938. №4.
5. Голдина Р.Д. К юбилею Фаяза Шариповича Хузина // Средневековая археология Волго-Уралья. — Казань: Институт археологии им. А.Х. Халикова АН РТ, 2016.
6. Даркевич В.П. Художественный металл Востока VIII-XIII вв. – М., 1976.
7. Турганов Б. Илк ўрта аср Хоразм шаҳарларида ҳунармандчилик // Хоразм шаҳарлари тарихи манбалар ва замонавий тадқиқотларда. – Т.: “Фан”, 2024.
8. Неразик Е.Е. Раскопки Якке-Парсана // МХЭ, Вып. 7. – М., 1963.
9. Толстов С.П. Древний Хорезм. – М., 1948.
10. Исмоилов Ш. Викинглар ҳазинасидаги Хоразмшоҳ тангаси // Хоразм шаҳарлари тарихи манбалар ва замонавий тадқиқотларда. – Т.: “Фан”, 2024.